

**AHOLI VA QISHLOQ HO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISH
TADBIRINING MAZMUN-MOHIYATI
(2026-yil misolida)**

Ilhomjon G‘ULOMOV
**TATU, “Jismoniy madaniyat
va gumanitar fanlar”**
kafedrasi dotsenti
E-mail:ikgulamov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida ilk marotaba O‘zbekistonda aholi va qishloq ho‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirining mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada ushbu tadbirni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsadlar hamda kelajadagi istiqbolli rejalar to‘g‘risida hamda mazkur tadbirning huquqiy asoslari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: aholini ro‘yxatga olish, aholi sanog‘i, qishloq ho‘jaligi, demografik nazorat, statistik tadbirlar, etnik tarkib, ijtimoiy tuzilma, mahalliy aholi, respondent, dastur.

So‘nggi yillarda aholi farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotlar olish, davlatning barqaror rivojlanish milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, ular asosida aholining soni, jinsi, oilaviy ahvoli, ma‘lumoti, hayot darajasi, yashash sharoiti, bandligi, demografik jihatdan tavsiflash orqali ijtimoiy muammolarini hal qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi aholisi muntazam ravishda o‘sib borayotganligi va aholi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlarni jamlash maqsadida aholini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazish, uning o‘tmishdagi tarixini tadqiq etish hamda bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi O‘RQ-611-son “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 5-fevraldagi PF-5655-son “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-son “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-173-son Farmoni imzolanib mazkur tadbirni o‘tkazishga bugungi kunda katta tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi ro‘yxatga olish jarayonining davriyligi, shaxsga doir ma‘lumotlarning maxfiyligi va davlat organlarining vakolatlarini qat‘iy belgilab berib, tadbirning xalqaro standartlar asosida o‘tkazilishiga huquqiy kafolat yaratdi.

Nihoyat BMT 2015-yilning 10-iyunida “2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar” rezolyutsiyasini qabul qildi.

Unga ko'ra, BMTga a'zo davlatlar kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yildi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining ushbu 710-son qarori bilan 2021-yil 1-25 noyabr kunlari Respublikamizning Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida, Xorazm viloyati Xiva shahrida hamda Toshkent shahri Yashnobod tumanida aholini sinov tariqasida ro'yxatdan o'tkazish belgilab berildi va yuqorida qayd qilingan hududlarda sinov tariqasida aholi ro'yxatdan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatimiz aholisi 36 milliondan oshib, har yili 900 ming yangi avlod kirib kelayotgani ta'kidlangan edi. Mustaqil O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiri hali biror marta o'tkazilmagan.

Shuning uchun ham Prezidentimizning tegishli Farmonlari va Hukumat qarorlariga muvofiq respublikamizda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish ishlari tizimli ravishda davom etmoqda. Jumladan, respublikamizda aholini ro'yxatga olishni tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy va uslubiy hujjatlar hamda ro'yxatga olish savolnomalari shakllari ishlab chiqildi, aholini ro'yxatga olishning maxsus veb-sayti (**aholi.stat.uz**) joriy qilindi, tadbirning logotipi va shiori ("**Yangi O'zbekistonning bir qismi bo'!**") tayyorlandi, aholini ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarini shakllantirish imkonini beruvchi "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi ishlab chiqildi.

Ro'yxat savolnomasi 71 ta savoldan iborat bo'lib, unda aholining turmush tarzi va qishloq xo'jaligiga oid asosiy ko'rsatkichlar keng qamrab olingan. Eng muhim jihat: aholini ro'yxatga olish mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta o'tkazilmoqda. Shuning uchun bu jarayonni "oddiy anketa" deb qaramaslik kerak - bu kelajakda byudjet rejalashtirish, infratuzilma, ish o'rinlari, ta'lim va qishloq xo'jaligi siyosati kabi katta masalalarga ta'sir qiladigan asosiy ma'lumotlar bazasi bo'ladi.

Savolnomalar vafot etgan shaxslarning oila a'zolari yoki o'zini o'zi boshqarish organlaridagi mavjud ma'lumotlar bazasi asosida to'ldiriladi. Aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning asosiy usuli - aholi (respondentlar) o'rtasida so'rov o'tkazish orqali savolnomalarni to'ldirish hisoblanadi. So'rov aholini ro'yxatga olish jarayonlariga vaqtincha jalb etiladigan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash vaqtincha jalb etiladigan xodimlar tomonidan, O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonunining 24-moddasida maxsus ijtimoiy muassasa va tashkilotlar xodimlari tomonidan so'rov o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi, shuningdek Internet tarmog'ida maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda elektron savolnomalarini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba o'tkazilgan "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish" tadbirining savolnomasiga kiritilgan savollarni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi. Savolnoma tarkibida jami savollar soni 71 ta bo'lib, shundan aholiga oid 54 ta va qishloq xo'jaligiga oid 17 tani tashkil etadi:

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri davlat taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asoslangan holda rejalashtirish va boshqarishning eng muhim statistik vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonning tarixiy retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublika hududida so‘nggi bor 1989-yilda o‘tkazilgan ro‘yxatga olish tadbiridan so‘ng o‘tgan 36 yillik vaqt mobaynida demografik ko‘rsatkichlar va aholining hayot darajasiga oid ma‘lumotlar jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutgan bo‘lib, ushbu masalani tizimli hal etish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas zaruratiga aylandi .

Tadbirning metodologik asosi raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarga tayanib, bu borada BMTning “2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar” rezolyutsiyasi asosiy yo‘nalish sifatida qabul qilindi. 2021-yilda ushbu jarayonni sinov tariqasida Andijon, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o‘tkazilgan tadbirlar yangi shakllantirilgan elektron tizimning hayotiylikini va planshet usulida ma‘lumot yig‘ishning an‘anaviy qog‘oz shakliga nisbatan tezkor hamda iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini amalda isbotladi . Monografiyada tahlil qilingan xorijiy davlatlar, jumladan Germaniya, Kanada va Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ro‘yxatga olish natijasida olingan aniq ma‘lumotlar infratuzilmani rejalashtirish, yangi ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish hamda ijtimoiy muhofaza dasturlarini manzilli amalga oshirishda fundamental rol o‘ynaydi . O‘zbekiston sharoitida ham 2026-yilda o‘tkazilishi belgilangan ushbu keng qamrovli tadbir aholining aniq soni, yoshi, jinsi, ta‘lim darajasi va migratsiya jarayonlari haqida yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirish orqali davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Aholini ro‘yxatga olishning o‘ziga xos ilmiy va amaliy jihati shundaki, u ilk bor qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri bilan integratsiyalashgan holda o‘tkazilmoqda va bu jarayonda respondentlar uchun shakllantirilgan 71 ta savoldan iborat maxsus savolnoma aholining turmush tarzi bilan birga agrar sektordagi real holatni qamrab oladi . Qishloq xo‘jaligiga oid ko‘rsatkichlarning yig‘ilishi yer resurslaridan foydalanish, chorvachilik va parrandachilik salohiyatini aniqlash imkonini berib, ushbu ma‘lumotlar soliqqa tortish maqsadida emas, balki sohani rivojlantirish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash uchun statistik poydevor bo‘lib xizmat qilishi alohida ilmiy ahamiyatga ega . Hozirgi kunda doimiy aholi soni 38 million kishidan oshgan respublikada ushbu tadbirning muvaffaqiyatli o‘tkazilishi yangi va mukammal kadastr xaritalarini yaratish, mehnat resurslarini joylashtirishning o‘rta va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlash hamda ijtimoiy muammolarni raqamlar tili bilan ifodalash imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, qo‘limizda har bir hududga doir aniq faktlar bo‘lsa, rejalarimiz ham, amallarimiz ham manzilli va puxta bo‘ladi. Aynan shuning uchun bizga butun Respublika yoki viloyatni qamrab oladigan ishonchli ma‘lumotlar kerak va ular doimiy ravishda yangilanib borilishi shart. Bunday aniq va yaxlit ma‘lumotlar esa aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi. Shunga qarab o‘tmish va bugun haqida fikr-mulohaza yuritish hamda kelajakni farazlash mumkin. Aholini ro‘yxatga olish aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma‘lumot

darajasi, oilaviy holati, bandligi va boshqa tavsiflari haqida ma'lumot olishning yagona manbai hisoblanadi. Ro'yxatga olish doirasida aholining yoshi, ta'lim darajasi, bandlik holati, migratsiya jarayonlari kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha aniq ma'lumotlar to'planadi. Qishloq xo'jaligi qismida esa yerdan foydalanish, chorvachilik va shu kabi bazaviy ko'rsatkichlar qamrab olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abror Nazarovich Sanaqulov (2024). VIRTUAL REALLIK FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 5 (11), 198-204.

2. G'ulomov, I. I., & Kasimova, Z. (2022). O 'ZBEKISTON SSR AHOLISINI RO 'YXATGA OLISH. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 14-14.

3. Gulamov, I. (2023). DEMOGRAPHIC POLICY OF 1939: BY THE EXAMPLE OF THE ACQUISITION EVENT IN REGISTER OF THE POPULATION OF THE UZBEK SSR. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 125-127).

4. Gulomov, I. (2020). 1926 CENSUS OF THE POPULATION OF THE UZBEKISTAN SSR THE EVENT AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE TODAY. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 1464-1472.

5. Gulomov, I. Organizational Behavior AND Leadership. *Green Economy and Development*, 2(4), 663644.

6. Gulomov, I., & Rasulova, R. (2024). RETRACTED: Environmental policy and the environmental situation in the countries of Central Asia. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 116, p. 07013). EDP Sciences.

7. Mamayusupov, U. (2025). Jamiyatni boshqarishda ilmiy bashoratning metodologik va prognostik vazifalari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(10s), 185-189.

8. Mamayusupov, U. (2025). THE IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN THE DEVELOPMENT OF. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), 61-61.

9. Mamayusupov, U. Q. (2015). Philosophical and methodological analysis of the starting point of the problem of scientific prediction. *Theoretical & Applied Science*, (5), 30-33.

10. N., Sanaqulov A. "Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth." *JournalNX*, 2020, pp. 897-903.

11. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Социосфера*, (4), 54-57.

12. Sanaqulov, A. N. (2022). Development of informational immunity as the key to increasing the information culture of people. In

Applied Sciences and Education: International Conference on Advance Research in Humanities. NY (pp. 191-196).

13. Санакулов, А. Н. (2022). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 2, No. 1).

14. Ташкенбаева, Д. А. (2016). Влияние европейской культуры на архитектуру колониального Туркестана второй половины XIX-начала XX вв. *International scientific review*, (2 (12)), 231-234.

15. Ташкенбаева, Д. А. (2019). Восточный Ренессанс и его культурное наследие: взгляд зарубежных исследователей. Колпинские чтения по краеведению и туризму, 2, 163-167.

16. Ташкенбаева, Д. А. (2019). Зарубежные научные центры по изучению колониального Туркестана. *Многомерность общества: цифровой поворот в гуманитарном знании.-Екатеринбург, 2019*, 348-350.

17. Ташкенбаева, Д. А. (2019). ИЗУЧЕНИЕ ВОПРОСОВ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ТУРКЕСТАНЕ В ЗАРУБЕЖНОЙ ИСТОРИОГРАФИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ИСТОРИЮ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ РЕГИОНА. In *Мир Евразии: от древности к современности* (pp. 157-163).

18. Ташкенбаева, Д. А. (2024). Цифровизация в гуманитарном образовании: новые возможности и актуальные вызовы. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 163-166.